

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№11-S O N

9710 xalqaro daraja



№240874




ISSN: 3060-4621

2025-YIL, NOYABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD., TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 725 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29- noyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BANGLADESH VA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISHI....7	Soliyev Axmadjon
ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭКОСИСТЕМУ E-COMMERCE: АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ КОНВЕРСИИ И ПОЛЬЗОВАТЕЛЬСКОГО ОПЫТА НА ПРИМЕРЕ КРУПНЕЙШИХ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ22	Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович
МОДЕЛИ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОДА ТН ВЭД: ПЕРСПЕКТИВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ37	Муратова Шохиста Ниматуллаевна
GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINING O'ZIGA HOS JIHATLARI (RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI MISOLIDA).....45	Tuychiev Alisher Jurayevich
ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ56	Касимова Фатима Тулкуновна, Джалилов Шерзод Кахрамонович
FACTORS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF PRODUCTION POTENTIAL OF INDUSTRIAL ENTERPRISES62	Allaeva Gulchekhra Jalgasovna
HUDUDLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI TENDENSIYASINI BAHOLASH70	Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich
MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI78	Duschanov Alisher Sherzod o'g'li
MAJBURIY SUG'URTA ZAXIRALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING AMALDAGI HOLATI85	Kodirkulov Oybek Turdiboyevich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI.....98	Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich
SANOAT KORXONASI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNDA KICHIK BIZNESNING O'RNI107	Usmonova Dilfuza Ilhomovna
TIBBIYOT MUASSASALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISH, HISOBGA OLISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....116	Ruziyeva Umida Muzaffarovna
INNOVATSION STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI126	Yusupov Saidvali Shukrullayevich
SOHALAR KESIMIDA SOLIQ YUKINI ANIQLASHNING AHAMIYATI137	Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Aminboyev Javohir Ravshanbek o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Choriyev Og'abek Alisher o'g'li, Usmonov Doniyor Maxamadjon o'g'li
АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТ МИГРАЦИОННОГО ОТТОКА ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ИЗ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИЙ ИХ РЕТЕНЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ144	Сайфутдинова Нигина Фуркатовна, Хусаннов Равшан Рахимович
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА.....157	Холикова Рухсора Санджаровна
O'ZBEKISTON ELEKTRON PULGA O'TISH SHAROITIDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDAN KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK.....169	Abdiyev Mansur Musurmonovich, Xujamuradov Abror Ro'zimurat o'g'li, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich
O'ZBEKISTONDA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI185	Akbarov Boburjon Sobirjon o'g'li
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....193	Ramazanov Suhrobjon Sherzod o'g'li

TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARINING KO'P OMILLI KLASSTER TAHLILI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	202
Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	209
Soliyev Axmadjon, Ibroximov Avazbek	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI	217
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
MINTAQADA IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI	222
Sapayev Maxsudbek Karimovich	
MINTAQ SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	227
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MODERN APPROACHES TO INDUSTRIAL COOPERATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN'S ECONOMY	233
Boyturayev Olimjon Urayimovich	
NAVOIY VILOYATIDA “YASHIL BELBOG’”LAR BARPO ETISHDA INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASH MINTAQAVIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI	244
Sayfulina Alfira Feratovna	
MINTAQ SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH	259
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	266
Raximov Furqat Jalolovich	
MARKAZIY BANKNING PUL TAKLIFI VA BANK REZERV LARI SIYOSATI: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TAHLIL.....	276
Safarova Zarina	
TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATUVCHI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	286
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
INTEGRATED E-COMMERCE MANAGEMENT SYSTEM BASED ON THE ERPI INDEX: CONCEPT, METHODOLOGY, AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN	295
Isokhujaeva Munira Yashnarovna	
РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕЙ ТОРГОВЛИ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ	301
Рауандина Гулдарай Калкеновна, Сайфуллаева Мадина Исмаевна	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI MAHSULOT PASPORTINI YARATISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	315
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
DUNYODAGI MINTAQAVIY TAFOVUTLAR: ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA YECHIMLAR.....	327
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	
INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI	334
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI	341
Mauzerov Jaxongir Ulug'bek o'g'li	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MARKETINGNING AHAMIYATI	348
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	355
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
ЭВОЛЮЦИЯ МАРКЕТИНГА И ТЕХНОЛОГИЙ КАК ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	362
Туйчиев Комилжон Лазизович	

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI O'TKAZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	369
Murtozayeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
ИННОВАЦИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	378
X.T. Буриев, Тошимов Улугбек Хакимович	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI	384
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
THE EVOLUTION OF MANAGEMENT APPROACHES IN THE 21ST CENTURY – ADAPTIVE MODELS OF TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL STRUCTURES	391
Tukhtaboev Abdurashid Tursunovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA, ELEKTRON XIZMATLAR VA AI TEXNOLOGIYALARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	398
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
MARKETING TADQIQOTLARDA BOG'LIQLIK KOEFFITSENTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	409
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
GLOBALASHUV DAVRIDA MAMLAKATDA FRILANSERLIK FAOLIYATI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'P OMILLI INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISHNING NEYRO-RAVSHAN KLASSIKATSIYA MODELI	428
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	435
Adamboyev Abror Akrom o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СЕМЕHOBOДЧЕСКОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ГЛОБАЛЬНОЙ АГРАРHOЙ И ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	443
Aхмедова Мадина Шухрат кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O'RNI	458
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
SI BILAN JIHOZLANGAN INNOVATSIYALARINING CHAKANA SAVDODAGI ROLI: ISTE'MOLCHI JALB ETILISHI, XARID ODATLARI VA MARKETING STRATEGIYASI.....	464
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETILISHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING BOSH OMILI	482
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIVAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	491
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI	504
Xamidbayev Asadbek Nodir o'g'li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI XALQARO BOZORLARGA CHIQISH IMKONIYATLARI.....	511
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIK OMILLARI.....	519
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASH IMKONIYATLARI.....	526
Ibodullayev Shohboz To'liqin o'g'li	
DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLARDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING XORIJ TAJRIBASI.....	534
Azizova Zilola Lochinovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL KREDITLASH MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH: EKOLOGIK LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI.....	544
Allayarov Suxrob Rustamovich	

OILAVIY TADBIRKORLIK OMILLARI VA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI	553
Zaxidova Umida Farxodovna	
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	567
Аминова Азиза Батырбаевна	
AVTOMOBIL SANOATIDA MARKETING TADQIQOTLARI ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	575
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
HUDUDLARDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	583
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi, Goziyeva Shaxina Djahongirovna	
SANOAT KLASSTERLARIDA MARKETING EKOTIZIMI ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQALAR TAHLILI	591
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
AUTSORSING VA AMALIYOT	601
Shodmonov Shokir Dustmurodovich	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ О ПОКУПКЕ.....	610
Усмонова Диёра Маҳмуд кизи, Нухритдинхаджаев Улугбек, Атаханов Асадбек	
AGROSANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH	620
Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA AUDITORIYANI SEGMENTATSIYALASH	628
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI	636
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
HUDUDLAR BO‘YICHA MOLIVAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR	645
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ.....	660
Эргашходжаева Шахноза Джасуровна, Хасанов Ганишер, Сафаров Азизбек	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	676
Ibragimov Salohiddin Ochilovich	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI	685
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	694
Isakov Axmadali Esanbaevich	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: КАК ДАННЫЕ О КЛИЕНТАХ, ЛОЯЛЬНОСТЬ И ОМНИКАНАЛЬНОСТЬ ПОВЫШАЮТ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РОЗНИЦЫ (ФОКУС НА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ).....	704
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	715
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	

INVESTITSION RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Isakov Axmadali Esanbaevich

Namangan davlat texnika universiteti

“Buxgalteriya xisobi” kafedrası

i.f.f.d, PhD., dotsent

E-mail: ahmadaliisakov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsion resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Singapur, Irlandiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklarining investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston uchun ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, rag‘batlantirish mexanizmlari, maxsus iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari, investitsiya muhiti.

Аннотация

В данной статье проанализированы механизмы стимулирования эффективного использования инвестиционных ресурсов на основе опыта зарубежных стран. Изучены стратегии привлечения инвестиций в таких странах, как Сингапур, Ирландия, Республика Корея, Китай и Объединённые Арабские Эмираты. По итогам анализа разработаны практические предложения по использованию передового международного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: инвестиции, прямые иностранные инвестиции, механизмы стимулирования, специальные экономические зоны, налоговые льготы, инвестиционный климат.

Abstract

This article analyzes mechanisms for promoting the effective use of investment resources based on the experience of foreign countries. The investment attraction strategies of Singapore, Ireland, South Korea, China, and the United Arab Emirates are examined. Based on the analysis, practical recommendations are developed for applying advanced international practices in the context of Uzbekistan.

Keywords: investment, foreign direct investment, incentive mechanisms, special economic zones, tax benefits, investment climate.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida investitsiyalar milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro savdo va investitsiya oqimlarining jadal o‘sishi sharoitida mamlakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TXI) jalb qilish uchun tobora kuchliroq raqobatlashmoqda [1]. Jahon banki va UNCTAD ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global TXI hajmi 1,3 trillion

AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 2 foizga kamaygan [2].

Investitsion resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki TXI orqali nafaqat moliyaviy kapital, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlari ham jalb etiladi [3]. Shu sababli, investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va xorijiy tajribadan samarali foydalanish yo'llari ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishi zarur.

O'zbekiston 2017-yildan boshlab tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Valyuta bozorini erkinlashtirish, soliq tizimini takomillashtirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish kabi chora-tadbirlar natijasida mamlakat investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshdi [4]. 2023-yilda O'zbekistonga jalb etilgan TXI hajmi 7,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p [5]. Biroq, mamlakat potensialidan to'liq foydalanish uchun investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion rag'batlantirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha ko'p qirrali tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. OECD mutaxassislari (2022) investitsion imtiyozlar butun dunyoda keng qo'llanilishini ta'kidlaydi va soliq imtiyozlari hamda moliyaviy rag'batlar samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqqan [6]. Ularning xulosalariga ko'ra, samarali loyihalashtirilgan imtiyozlar investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi, biroq noto'g'ri tuzilgan imtiyozlar davlat byudjetiga ortiqcha yuk solishi mumkin.

XVF, OECD, BMT va Jahon banki hamkorlikdagi tadqiqotida past daromadli mamlakatlar uchun soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilingan [7]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitining umumiy sifati – makroiqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, huquqiy muhit – ko'pincha alohida soliq imtiyozlaridan ko'ra muhimroq omil hisoblanadi. Boshqacha aytganda, yomon investitsiya muhitida soliq imtiyozlari o'z samarasini bermaydi.

James o'z tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq imtiyozlarining TXI ga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida tahlil qilgan [8]. Uning xulosalariga ko'ra, samarali soliq stavkasining 10 foizga kamayishi TXI oqimini o'rtacha 3 foiz punktga oshirishi mumkin. Biroq, bu ta'sir rivojlangan mamlakatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) samaradorligi bo'yicha ham ko'plab tadqiqotlar mavjud. Zeng Xitoy tajribasini o'rganib, MIZlarning mamlakatning eksportga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyasidagi rolini ta'kidlagan [9]. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, 2007-yilda Xitoy MIZlari mamlakat YaIMning 22 foizini, TXIning 46 foizini va eksportning 60 foizini ta'minlagan. Bu ma'lumotlar MIZlarning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatadi.

Howell va Ma, Cao, Zhao tadqiqotlari Xitoy MIZlarining mintaqaviy unumdorlikka ijobiy ta'sirini isbotlagan [10]. Wu, Liu va Huang (2021) esa MIZ

dasturlarining patent arizalari va innovatsion faoliyat o'sishiga ta'sirini tahlil qilgan [11]. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, MIZlar nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki innovatsion ekotizimni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Investitsion agentliklar faoliyati bo'yicha ham muhim tadqiqotlar mavjud. Charlton va Davis OECD mamlakatlarida investitsion agentliklarning maqsadli tarmoqlarga TXI jalb qilishdagi samaradorligini o'rganib, ularning faoliyati TXI oqimini sezilarli darajada oshirishini aniqlagan [12]. Bobonis va Shatz (2007) ham AQSh shtatlari misolida investitsion ofislar faoliyatining TXI zaxirasiga ijobiy ta'sirini qayd etgan [13].

O'zbekiston kontekstida YEHTTO strategiyasi mamlakatning investitsion salohiyatini oshirish yo'llarini belgilab bergan [14]. Strategiyada energiya sektorini dekarbonizatsiya qilish, xususiy sektorni kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik dasturlarini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishlar O'zbekistonda investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv usullariga asoslangan. Qiyosiy tahlil usuli Singapur, Irlandiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklarining investitsion rag'batlantirish siyosatlarini solishtirish va umumiy qonuniyatlarni aniqlash uchun qo'llanilgan. Mamlakatlar tanlovi ularning TXI jalb qilishdagi muvaffaqiyati va O'zbekiston sharoitlariga nisbatan qo'llash imkoniyatlariga asoslangan.

Tadqiqot ma'lumotlar bazasi quyidagi manbalardan shakllangan: UNCTAD Jahon investitsiya hisoboti, OECD investitsion siyosat monitoringi, Jahon banki ma'lumotlar bazasi, AT Kearney TXI ishonch indeksi, shu bilan birga milliy investitsion agentliklar rasmiy ma'lumotlari. Tahlil 2018-2024 yillar davomiyligidagi statistik ma'lumotlarni qamrab olgan.

Metodologik yondashuv uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda tanlangan mamlakatlarning investitsion rag'batlantirish tizimi elementlari (soliq imtiyozlari, moliyaviy rag'batlar, maxsus zonalar, institutsional qo'llab-quvvatlash) alohida-alohida tahlil qilingan. Ikkinchi bosqichda qiyosiy matritsa asosida mamlakatlar siyosatlaridagi umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlangan. Uchinchi bosqichda O'zbekiston uchun adaptatsiya qilish mumkin bo'lgan eng samarali amaliyotlar ajratib ko'rsatilgan.

Cheklovlar sifatida shuni ta'kidlash lozimki, har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy va institutsional sharoitlari mavjud bo'lib, muvaffaqiyatli amaliyotlarni boshqa sharoitlarga to'liq ko'chirish har doim ham mumkin emas. Shu sababli, tahlil natijalarini izohlashda kontekstual omillar hisobga olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish natijasida investitsion rag'batlantirish mexanizmlarining bir nechta asosiy yo'nalishlari aniqlandi. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga mos ravishda noyob amaliyotlarni ishlab chiqqan.

Singapur tajribasi

Singapur investitsiyalarni jalb qilishda dunyo bo'ylab eng muvaffaqiyatli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish kengashi (EDB) mamlakat investitsiya siyosatining markaziy organi sifatida faoliyat yuritadi [15]. EDB "bir oyna" tamoyili asosida ishlaydi va investorlar uchun har tomonlama xizmat ko'rsatadi – loyihalarni baholashdan tortib, litsenziyalash va keyingi qo'llab-quvvatlashgacha. 2020-yilning birinchi yarmidayoq Singapur 14,3 mlrd Singapur dollariga teng o'zgaras aktivlar investitsiyalarini jalb qildi, bu 2019-yilning jami ko'rsatkichining 95 foiziga teng [16].

Singapurning asosiy rag'batlantirish vositalari qatoriga kashshof korxonalar uchun imtiyozlar (Pioneer Incentive Scheme), rivojlanish va kengayish imtiyozlari (Development and Expansion Incentive), investitsion imtiyozlar va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun grantlar kiradi [17]. Kashshof korxonalar sxemasi bo'yicha yangi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun korporativ soliq 5-10 yilgacha 0 foizga tushiriladi. Rivojlanish va kengayish imtiyozlari esa mavjud kompaniyalarni faoliyatini kengaytirish va innovatsiyalarga sarmoya kiritishga undaydi.

Singapurning muhim afzalligi shundaki, mahalliy va xorijiy investorlar uchun bir xil huquqiy tartibotlar qo'llaniladi [18]. Klasterli yondashuv ham alohida ahamiyatga ega – EDB elektron-yarimo'tkazgich, neft-kimyo va qayta ishlash sanoatlari bo'yicha klasterlarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv TXI jalb qilish bilan birga, tarmoqlararo aloqalar va spillover samaralarini kuchaytiradi.

Irlandiya tajribasi

Irlandiya Sanoatni rivojlantirish agentligi (IDA Irlandiya) 1949-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda keng tajribaga ega [19]. Hozirda IDA 1800 ga yaqin mijoz kompaniyalarga xizmat ko'rsatadi va 300 000 dan ortiq ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlaydi. Agentlik investorlarga bepul konsalting xizmatlari, grantlar va turli moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Irlandiyaning asosiy investitsion rag'batlari soliq imtiyozlari, pul grantlari va o'quv grantlaridan iborat [20]. Korporativ soliq stavkasi 12,5 foizni tashkil etadi – bu Yevropa Ittifoqidagi eng past ko'rsatkichlardan biri. Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun 25 foiz soliq krediti mavjud. Bundan tashqari, IDA investorlarga ishga kirish xarajatlarini qoplash uchun pul grantlari, har bir yaratilgan ish o'ri uchun proporsional grantlar va xodimlarni o'qitish uchun maxsus grantlar taqdim etadi.

Irlandiyaning muvaffaqiyatida inson kapitali muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda 30-34 yoshli aholining katta qismi oliy ma'lumotga ega [21]. Irlandiya xalqaro talantlarni jalb qilish va ushlab qolishda dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, rivojlangan telekommunikatsiya infratuzilmasi, Yevropa Ittifoqi va Yevrozonaga a'zolik ham investorlar uchun jozibali omillar hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya investitsiyalarni jalb qilish uchun kompleks tizimga ega. 1998-yilda qabul qilingan Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish to'g'risidagi qonun (FIPA) asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi [22]. Koreya savdo-investitsiya agentligi

(KOTRA) doirasida Invest Koreya bir oyna xizmati orqali investorlar uchun kompleks qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan.

Mamlakatda uch turdagi maxsus hududlar mavjud: erkin iqtisodiy zonalar, erkin investitsiya zonalar va bojsiz zonalar [23]. Har bir zona turi o'ziga xos soliq imtiyozlari va investorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga ega. FIPA doirasida kompaniyalar dastlabki 5 yil davomida mol-mulkni olish solig'i va ro'yxatdan o'tkazish solig'idan ozod qilinadi, keyingi 2 yil davomida esa 50 foiz chegirma beriladi [24].

Janubiy Koreyaning muhim yangiligi – naqd pul grantlari tizimi. Korxonalar zavod qurilishi, uskunalar investitsiyasi, ishga qabul qilish va o'qitish uchun ajratilgan mablag'larning ma'lum foizini grant sifatida olishlari mumkin [25]. Xorijiy investitsiya qo'mitasi yuqori texnologiyali sohalarga va sanoatni qo'llab-quvvatlash xizmatlariga investitsiyalar uchun naqd pul kompensatsiyalari taqdim etadi.

Xitoy tajribasi

Xitoy 1980-yillardan boshlab maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Dastlabki to'rtta MIZ – Shenzhen, Shantou, Chjuxay va Syamen – 1980-1981 yillarda tashkil etilgan [26]. Hozirga kelib, Xitoyda erkin savdo zonalar, eksport qayta ishlash zonalar, yuqori texnologiyali rivojlanish zonalar va maxsus sanoat parklari faoliyat yuritmoqda.

MIZlar investorlar uchun keng imtiyozlar taklif etadi: korporativ daromad solig'ining past stavkalari, QQS bo'yicha chegirmalar, soddalashtirilgan biznes ro'yxatdan o'tkazish, bojxona afzalliklari [27]. 2013-yilda tashkil etilgan Shanxay erkin savdo zonasi import tariflarini kamaytirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va xorijiy valyutani erkin konvertatsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi [28].

Xitoy tajribasining muhim jihati – bosqichma-bosqich liberalizatsiya yondashuvi. Dastlab faqat cheklangan hududlarda sinab ko'rilgan amaliyotlar keyinchalik butun mamlakatga kengaytirilgan [29]. Bu yondashuv islohotlarni xavfsiz sinab ko'rish va natijalarni baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, Xitoy hukumati 2025-yilgi TXIni barqarorlashtirish harakatlar rejasida milliy iqtisodiy-texnologik rivojlanish zonalarida islohotlarni chuqurlashtirish va erkin savdo zonalar siyosatini takomillashtirishni belgilab qo'ygan [30].

Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi

BAA investitsion siyosatning eng ochiq modellaridan biriga ega. Mamlakatda 40 dan ortiq ko'p tarmoqli erkin zonalar mavjud bo'lib, xorijiy investorlar kompaniyalarning 100 foiz ulushiga egalik qilishlari mumkin [31]. 2020-yilda qabul qilingan Tijorat kompaniyalari to'g'risidagi federal qonun xorijiy kompaniyalarga mahalliy vakil yoki agent bo'lmasdan filiallar ochish imkonini berdi.


BAA erkin zonalarining asosiy afzalliklari: import va eksport solig'idan ozod qilish, korporativ soliqdan ozod qilish, shaxsiy daromad solig'i yo'qligi, kapital va foydani cheksiz repatriatsiya qilish imkoniyati [32]. Dubai 2023-yilda global greenfield TXI loyihalarini jalb qilishda dunyoda birinchi o'rinni egallagan – 511 ta loyiha yoki global ulushning 6,8 foizi [33].

Abu-Dabi va Dubay ikkilangan litsenziyalash tizimini joriy etgan – erkin zonalaridagi subyektlar ma'lum sohalarda erkin zonadan tashqarida ham faoliyat yuritishlari mumkin [34]. NextGenFDI tashabbusi ilg'or texnologiyalar kompaniyalari uchun tezlashtirilgan litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini taqdim etadi. Bundan tashqari, "oltin viza" dasturi investorlar va iste'dodli mutaxassislar uchun 5-10 yillik uzoq muddatli yashash huquqini beradi.

1-jadval.

Xorijiy mamlakatlarning investitsion rag'batlantirish mexanizmlari qiyosiy tahlili¹

Ko'rsatkich	Singapur	Irlandiya	J.Koreya	Xitoy	BAA
Korporativ soliq stavkasi	17% (5% imtiyoz)	12.5%	25% (imtiyozlar)	25% (MIZda kam)	9% (2023 dan)
100% xorijiy egalik	Ha	Ha	Ko'p sohalarda	MIZlarda	Ha
Maxsus zonalar	3 ta EIZ	Mintaqaviy klasterlar	8 ta EIZ	7 ta MIZ, ESZ	40+ erkin zona
ITTI grantlari	Ha	25% kredit	7% gacha chegirma	Subsidiyalar	Grantlar
Bir oyna xizmati	EDB	IDA Ireland	Invest Korea	Invest in China	Dubai FDI



1-rasm. Investitsion rag'batlantirish mexanizmlarining konseptual modeli²

Yuqoridagi konseptual model investitsion rag'batlantirish mexanizmlarining o'zaro bog'liq elementlarini tasvirlaydi. Markaziy element – investitsion rag'batlantirish mexanizmlari – olti asosiy tarkibiy qismdan iborat: soliq imtiyozlari,

¹ Muallif tomonidan xorijiy manbalar asosida tuzilgan

² Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

moliyaviy ragʻbatlar, maxsus iqtisodiy zonalar, institutsional qoʻllab-quvvatlash, infratuzilma rivojlanishi va inson kapitali. Ushbu elementlarning samarali kombinatsiyasi TXI oqimining koʻpayishi, texnologiya transferi, ish oʻrinlari yaratilishi va iqtisodiy oʻsish kabi natijalarni taʼminlaydi.

Oʻzbekiston uchun qoʻllash imkoniyatlari

Xorijiy tajriba tahlili Oʻzbekiston uchun bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, barcha muvaffaqiyatli mamlakatlar mustaqil va professional investitsion agentlik tizimiga ega. Oʻzbekistonda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining tegishli tarkibiy boʻlimlari mavjud boʻlsa-da, Singapur EDB yoki Irlandiya IDA darajasidagi ixtisoslashgan agentlik yaratish samaradorlikni oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarining maqsadli yoʻnaltirilganligi muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekistonda 2023-yildan boshlab QQS 15 foizdan 12 foizga tushirildi [35], biroq ustuvor tarmoqlar va mintaqalar uchun qoʻshimcha differensial imtiyozlar joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi uchun 2023-yilda joriy etilgan maxsus imtiyozlar [36] tajribasi boshqa mintaqalarga ham kengaytirilishi mumkin.

Uchinchidan, maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish zarur. Oʻzbekistonda hozirda 21 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda, biroq ularning TXI jalb qilishdagi ulushi potentsialdan pastroq. Xitoy tajribasidan kelib chiqib, zonalarini tarmoqlar boʻyicha ixtisoslashtirish va klasterli yondashuvni joriy etish tavsiya etiladi.

Toʻrtinchidan, inson kapitaliga investitsiyalar muhim rol oʻynaydi. Irlandiya va Singapur tajribasi koʻrsatadiki, malakali ishchi kuchi investorlar uchun eng muhim jalb qilish omillaridan biridir. Oʻzbekistonda aholining 60 foizdan ortigʻi 30 yoshdan yosh [37] boʻlib, bu demografik afzallikdan samarali foydalanish uchun taʼlim sifatini oshirish va kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Investitsion resurslardan samarali foydalanishni ragʻbatlantirish mexanizmlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bogʻliq boʻlishi kerak. Muvaffaqiyatli mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, soliq imtiyozlari oʻz-oʻzidan samarali boʻlmaydi – ular qulay investitsiya muhiti, rivojlangan infratuzilma va malakali ishchi kuchi bilan birgalikda ishlaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish boʻyicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, mustaqil va ixtisoslashgan investitsion agentlik tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu agentlik investorlar bilan ishlashning butun sikli – jalb qilishdan tortib keyingi qoʻllab-quvvatlashgacha – uchun javobgar boʻlishi kerak. Singapur EDB modeli asosida agentlik investorlarga bepul konsalting xizmatlari, maʼmuriy tartib-qoidalarni soddalashtirish va davlat organlari bilan muloqotda vositachilik koʻrsatishi lozim.

Ikkinchidan, differensial soliq imtiyozlari tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Ustuvor tarmoqlar (yuqori texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya, agrosanoat) va

kam rivojlangan mintaqalar uchun qo‘shimcha imtiyozlar belgilash lozim. Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalar uchun 5-10 foiz soliq chegirmasi joriy etilishi mumkin.

Uchinchidan, maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish zarur. Xitoy tajribasiga tayangan holda, zonalarini tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashtirish, klasterli yondashuvni joriy etish va zona ichidagi infratuzilmani tubdan yaxshilash tavsiya etiladi. Har bir zona uchun aniq maqsadli ko‘rsatkichlar va samaradorlik mezonlari belgilanishi kerak.

To‘rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish lozim. BAA tajribasi ko‘rsatadiki, yirik infratuzilma loyihalarida davlat-xususiy sheriklik samarali investitsiya jalb qilish vositasi hisoblanadi.

Beshinchidan, investorlar bilan muloqot tizimini takomillashtirish zarur. Janubiy Koreyaning Xorijiy investitsiyalar ombudsmani tajribasi – investorlar shikoyatlarini o‘rganish va tizimli muammolarni hal qilish uchun maxsus organ – O‘zbekistonda ham joriy etilishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat mavjud investorlarni ushlab qolish, balki yangi investorlar ishonchini oshirishga yordam beradi.

Kelgusida tadqiqotni O‘zbekistonning alohida mintaqalari kesimida chuqurlashtirish, investitsion imtiyozlar samaradorligini miqdoriy baholash va milliy investitsiya siyosatining uzoq muddatli ta‘sirini ekonometrik usullar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD (2024). Investment incentives, promotion and facilitation. <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/investment-incentives-promotion-and-facilitation.html>
2. UNCTAD (2024). World Investment Report 2024: Investment facilitation and digital government. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024>
3. OECD (2024). The Role of Incentives in Investment Promotion. https://www.oecd.org/en/publications/the-role-of-incentives-in-investment-promotion_e3338264-en.html
4. U.S. Department of State (2024). 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>
5. The Borgen Project (2025). Uzbekistan’s Investment Opportunities. <https://borgenproject.org/uzbekistans-investment-opportunities/>
6. OECD (2022). Building an Investment Tax Incentives Database. OECD Working Papers on International Investment 2022/01. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/02/building-an-investment-tax-incentives-database_c2eb9643/62e075a9-en.pdf
7. IMF, OECD, UN, World Bank (2015). Options for Low Income Countries’ Effective and Efficient Use of Tax Incentives for Investment. <https://www.imf.org/external/np/g20/pdf/101515.pdf>
8. James, S. (2013). Incentives and Investments: Evidence and Policy Implications. World Bank Group. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/5f14d5e0-1b40-5219-93ab-9691a0b784d0/content>
9. Zeng, D.Z. (2010). Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters. World Bank.
10. Ma, C., Cao, W., Zhao, Y. (2023). The effect of China’s special economic zones on regional productivity. Regional Studies.

11. Wu, J., Liu, Y., Huang, K. (2021). Do China's special economic zones increase incentives to invest in R&D? Research Policy. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/13662716.2025.2503283>
12. Charlton, A., Davis, N. (2006). Does Investment Promotion Work? OECD Development Centre Working Papers.
13. Bobonis, G., Shatz, H. (2007). Agglomeration, Adjustment, and State Policies in the Location of Foreign Direct Investment in the United States. Review of Economics and Statistics.
14. EBRD (2024). Uzbekistan Country Strategy 2024-2029. https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd_dxp/assets/pdfs/country-strategies/uzbekistan/EBRD-Latest-Uzbekistan-Strategy.pdf
15. U.S. Department of State (2023). 2023 Investment Climate Statements: Singapore. <https://www.state.gov/reports/2023-investment-climate-statements/singapore/>
16. VietTonkin Consulting (2023). Singapore's effective foreign investment attraction policy. <https://www.viettonkinconsulting.com/news/singapores-effective-foreign-investment-attraction-policy-reference-experience-and-solutions-for-vietnam/>
17. ASEAN Briefing (2024). Incentives for Doing Business in Singapore. <https://www.aseanbriefing.com/doing-business-guide/singapore/why-singapore/incentives-for-doing-business-in-singapore>
18. Pinsent Masons (2025). Foreign direct investment in Singapore. <https://www.pinsentmasons.com/out-law/guides/singapores-foreign-investment-regime>
19. IDA Ireland (2024). About IDA Ireland. <https://www.idaireland.com/about-ida-ireland>
20. IDA Ireland (2024). Funding Programmes. <https://www.idaireland.com/scale-with-ida/funding-programmes-incentives>
21. Government of Ireland (2024). Foreign Direct Investment. <https://www.gov.ie/en/organisation-information/6503f-foreign-direct-investment/>
22. U.S. Department of State (2024). 2024 Investment Climate Statements: South Korea. <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/south-korea>
23. Santander Trade (2024). Foreign investment in South Korea. <https://santandertrade.com/en/portal/establish-overseas/south-korea/foreign-investment>
24. OOSGA (2023). Investing in Korea — Industrial Incentives & Zones. <https://oosga.com/briefings/kor-incentives/>
25. Invest Korea (2024). Foreign Investment Zones. <https://www.investkorea.org/ik-en/cntnts/i-372/web.do>
26. Wikipedia (2024). Special economic zones of China. https://en.wikipedia.org/wiki/Special_economic_zones_of_China
27. CRA Global Development (2024). Special Economic Zones (SEZs): Lessons from China's Transformative Experience. <https://craglobaldevelopment.com/the-ingredients-for-successful-special-economic-zones-lessons-from-china/>
28. FDI China (2025). The Best China Free Trade Zones Guide. <https://fdichina.com/blog/china-free-trade-zones-guide/>
29. IMF (2004). Foreign Direct Investment in China: Some Lessons for Other Countries. <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781589061781/ch005.xml>
30. Government of China (2025). 2025 Action Plan for Stabilizing Foreign Investment. https://english.www.gov.cn/news/202502/22/content_WS67b9044dc6d0868f4e8efdff.html
31. UAE Government (2024). Investment Incentives. <https://www.moet.gov.ae/en/investment-incentives>
32. UAE Government (2024). Foreign Direct Investment. <https://u.ae/en/information-and-services/finance-and-investment/foreign-direct-investment>
33. Lloyds Bank Trade (2024). Foreign direct investment in the United Arab Emirates. <https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/united-arab-emirates/investment>

34. U.S. Department of State (2025). 2025 Investment Climate Statements: United Arab Emirates. <https://www.state.gov/reports/2025-investment-climate-statements/united-arab-emirates>
35. U.S. Department of State (2023). 2023 Investment Climate Statements: Uzbekistan. <https://www.state.gov/reports/2023-investment-climate-statements/uzbekistan>
36. UNCTAD (2024). Investment Policy Monitor: Uzbekistan. <https://investmentpolicy.unctad.org/investment-policy-monitor/234/uzbekistan>
37. Euronews (2023). Uzbekistan attracts foreign investment thanks to government reforms. <https://www.euronews.com/business/2023/05/09/uzbekistan-attracts-foreign-investors-thanks-to-extensive-government-reforms>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**